



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

KUNJUT (SESAMUM INDICUM L) NAV VA NAMUNALARIDA QIMMATLI XO'JALIK BELGILARI YUQORI BO'LGAN BIRLAMCHI MANBALAR AJRATIB OLISH

Amanova Maxfurat Eshmuradovna

ToshDAU, Sabzavotchilik va issiqxona xo'jaligini tashkil etish kafedrası professori

Email: peanut66@mail.ru

Norov Ilxom Chori o'g'li

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti tadqiqotchisi

Email: ilhom_norov94@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada kunjut (*Sesamum indicum* L) ning 100 ta nav va namunalarining qimmatli xo'jalik belgilari andoza navlar bilan taqqoslangan holda o'rganildi. Ilmiy tadqiqotda tanlab olingan namunalarda qo'zoqchalar soni, qo'zoqcha ichidagi don soni, 1000 dona don vazni xamda mahsuldorlik ko'rsatkichlari o'rganilgan. Ushbu maqolada qimmatli xo'jalik belgilari yuqori bo'lgan namunalarni tanlash ishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: kunjut, kolleksiya, namuna, nav qo'zoqchalar soni, qo'zoqcha ichidagi don soni, 1000 dona don vazni, mahsuldorlik.

SELECTION OF PRIMARY SOURCES WITH HIGH VALUABLE ECONOMIC TRAITS IN SESAME (*SESAMUM INDICUM* L) VARIETIES AND SPECIMENS

Amanova Makhfurat Eshmuradovna

TashDAU, Professor, Department of Vegetable Growing and Greenhouse Farming

Norov Ilkhom Chori oğlu

Researcher, Southern Agricultural Research Institute

Annotation. This article examines the productivity of 100 sesame (*Sesamum indicum* L) cultivars and accessions compared to standard cultivars. The accessions selected for the study were assessed for pod count, grain count, thousand-kernel weight, and productivity. The article presents the results of the selection process for accessions with high productivity.

Keywords: sesame, collection, sample, variety, number of pods, number of grains in a pod, weight of 1000 grains, productivity.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i13/n04>

Kirish. Hozirgi kunda kunjut yetishtirishda quyidagi muamolarga duch kelinmoqda hosildorligi yuqori, mahsuldor va mahalliy sharoitga moslashtirilgan navlarning yetishmasligi, qo'zoqchalarning parchalanishiga moyilligi va urug'larning past saqlanishi, biotik va abiotik stresslar, zamonaviy ishlab chiqarish va yig'im-terimdan oldingi va keyingi texnologiyalarning yetishmasligi tufayli kunjut yetishtirish jiddiy cheklangan.

Attar Roshan M. et al ning ilmiy izlanishlariga ko'ra kunjut (*Sesamum indicum* L.) sanoat va iste'mol uchun yetishtiriladigan eng qadimgi moyli o'simliklardan biridir. U dunyoning tropik va subtropik mintaqalarida keng tarqalgan. Kunjut mahsuldorlik ko'rsatkichi o'sayotgan sharoitlarga, navlarga va yetishtirish agrotexnikasiga qarab juda o'zgaruvchan bo'lishi aniqlangan [1].

Misganaw M., Mekbib F larning olib borgan ilmiy izlanishlariga ko'ra kunjut mahalliy va eksport bozor iqtisodiyotida urug'i va moyi uchun yetishtiriladigan moyli ekin bo'lib, fermerlar, savdogarlar, qayta ishlovchilar va Efiopiya milliy iqtisodiyoti uchun katta daromad manbai bo'lib hisoblanadi. Biroq, uning mahsuldorlik ko'rsatkichiga va yetishtirishda tashqi muhit omillari ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [2].

Jeyaraj S., Beevy S. S va boshqa olimlarning ma'lumotlariga ko'ra Kunjut (*Sesamum indicum* L.) tropik va subtropik hududlarda ko'p ekiladigan an'anaviy moyli o'simlik hisoblanib kelgan. So'nggi yillarda ishlab chiqarish global miqyosda oshgan bo'lsa-da, biotik va abiotik omillarning zararli ta'siri tufayli uning mahsuldorligi turli mintaqalarda juda past ekanligi tadqiqot natijalarida aniqlangan [3].

Rajesh P. ning olib borgan ilmiy izlanishlar natijalariga ko'ra Hindiston qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti asosan moyli ekinlarga asoslangan. Hindistonda kunjut faqat asosiy moyli ekin emas balki yuqori sifatli oqsil qimmatli ekin hamdir. Iqlim o'zgarib borishi o'simliklarning mahsuldorligini pasaytirdi va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqishi izohlangan [4].

Materiallar va uslublar. Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutiga qarashli tajriba dalasida o'simliklar genetik resurslari ITI Milliy genbankida saqlanayotgan kunjut jahon genofondidan dunyoning 27 ta davlatlarida turli geografik xududlaridan jamlangan 100 ta namunalari ekib o'rganildi. Olib borilgan tadqiqotimizda andoza nav "Toshkentskiy -122" navi xamda 99 ta namunalar, 1 qaytariqda 4 m² maydonga ekib o'rganildi.

Natijalar va munozara. Olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra kolleksiya ko'chatzorida ekib o'rganilgan kunjut nav va namunalarda bir tup o'simlikdagi qo'zoqchalar soni, bir tup o'simlikdagi qo'zoqchadagi urug' soni, 1000 dona don vazni xamda bir tup o'simlik mahsuldorlik ko'rsatkichi tahlil qilindi. Tajriba natijalariga ko'ra bir tup o'simlikdagi qo'zoqchalar soni donada tahlil qilinganida o'rtacha ko'rsatkich 100 donadan 140 donagacha bo'lganligi tahlil natijalarida aniqlandi. Andoza nav Toshkentskiy-122 navida bu ko'rsatkich 120 donani tashkil qilganligi tajriba natijalarida izohlandi (1- jadval).

Kunjut nav va namunalarda bir tup o'simlik mahsuldorlik ko'rsatkichi bo'yicha yuqori bo'lgan namunalar (2023-yil.).

No	O'z O'ITI katalog nomeri	Kelib chiqishi	1 o'simlikdagi qo'zoqchalar soni donada	1 o'simlikdagi qo'zoqchadagi urug' soni donada	1 o'simlik mahsuldorligi, g	1000 dona urug' vazni, g
1	Toshkentskiy-122(andoza)	O'zbekiston	120	65	21,1	2,70
2	K-7	O'zbekiston	130	70	25,5	2,80
3	K-17	O'zbekiston	140	70	28,4	2,90
4	K-60	O'zbekiston	120	65	23,4	3,00
5	K-53	O'zbekiston	130	65	23,7	2,80
6	Mahalliy-1	O'zbekiston	130	70	25,5	2,80
7	Mahalliy-2	O'zbekiston	110	70	21,6	2,80
8	Mahalliy-3	O'zbekiston	120	63	19,7	2,60
9	Mahalliy-4	O'zbekiston	130	60	21,8	2,80

10	Mahalliy-5	O'zbekiston	130	70	28,2	3,10
11	K-546	O'zbekiston	110	65	18,6	2,60
12	K-82	O'zbekiston	110	65	20,0	2,80
13	K-275	O'zbekiston	130	70	21,8	2,40
14	K-458	O'zbekiston	110	65	20,0	2,80
15	K-462	O'zbekiston	140	70	27,8	2,84
16	K-156	Turkiya	120	65	20,3	2,60
17	K-160	Turkiya	120	70	24,5	2,92
18	K-280	Turkiya	120	65	21,1	2,70
19	K-187	Turkiya	115	70	20,9	2,60
20	K-195	O.Rados	120	65	22,5	2,88
21	K-202	O.Rados	140	70	31,7	3,23
22	K-846	Meksika	105	55	15,6	2,70
23	K-596	Kitay	120	60	18,7	2,60
24	K-277	Misir	120	70	23,5	2,80
25	K-276	Afrika	110	55	15,7	2,60
26	K-213	Tunis	100	65	16,9	2,60
27	K-303	Krasnadar	130	70	29,5	3,24
28	K-37	Germaniya	120	65	22,6	2,90
29	K-289	Iron	130	55	18,6	2,60
30	K-297	Turkmaniston	120	65	21,1	2,70
Eng past ko'rsatkich			100	55	15,6	2,40
O'rtacha ko'rsatkich			122	66	22,3	2,78
Eng yuqori ko'rsatkich			140	70	31,7	3,24

Andoza navdan bir tup o'simlikdagi qo'zoqchalar soni bo'yicha yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan namunalar soni 11 tani tashkil qilganligi tajriba natijalarida izohlandi. Andoza navdan bir tup o'simlikdagi qo'zoqchalar soni bo'yicha past ko'rsatkichni namoyon qilgan namunalar soni esa 8 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi. Bu ko'rsatkich bo'yicha andoza nav bilan bir xil ko'rsatkichni tashkil qilgan namunalar soni 10 tani tashkil qilganligi tajriba natijalarida izohlandi.

Tajriba natijalariga ko'ra bir tup o'simlikdagi qo'zoqcha ichidagi urug' soni donada tahlil qilinganida o'rtacha ko'rsatkich 55 donadan 70 donagacha bo'lganligi tajriba natijalarida aniqlandi. Andoza nav Toshkentskiy-122 navida bir tup o'simlikdagi qo'zoqcha ichidagi urug' soni 65 donani tashkil qilganligi olingan ma'lumotlarda izohlandi. Andoza navdan bu ko'rsatkich bo'yicha yuqori ko'rsatkichni namoyon qilgan namunalar soni 12 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi. Andoza navdan bir tup o'simlikdagi qo'zoqcha ichidagi urug' soni bo'yicha past ko'rsatkichni tashkil qilgan namunalar soni 6 tani tashkil qilganligi tajriba natijalarida izohlandi. Andoza navdan bu ko'rsatkich bo'yicha bir xil ko'rsatkichni tashkil qilgan namunalar soni 11 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra kunjut nav va namunalarda 1000 dona don vazni tahlil qilinganida o'rtacha ko'rsatkich 2,40 g dan 3,24 g ni tashkil qilganligi aniqlandi. 1000 dona don vazni Toshkentskiy-122 navida 2,7 g ni tashkil qilganligi tajriba natijalarida

izohlandi. Andoza navdan 1000 dona don vazni bo'yicha yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan namunalar soni 17 tani tashkil qilganligi tajriba natijalarida aniqlandi. Andoza nav Toshkentskiy-122 navidan 1000 dona don vazni bo'yicha past ko'rsatkichni tashkil qilgan namunalar soni 9 tani tashkil qilganligi olingan ma'lumotlarda izohlandi. Qolgan nav va naumalarda 1000 dona don vazni bir xil ko'rsatkichni tashkil qilganligi tajriba natijalarida aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra bir tup o'simlik mahsuldorlik ko'rsatkichi bo'yicha tahlil qilinganida o'rtacha ko'rsatkich 15,6 g dan 31,7 g ni tashkil qilganligi tajriba natijalarida izohlandi. Andoza nav Toshkentskiy-122 navida bir tup o'simlik mahsuldorlik ko'rsatkichi 21,1 g ni tashkil qilganligi olingan ma'lumotlarda izohlandi. Andoza nav Toshkentskiy-122 navidan bir tup o'simlik mahsuldorlik ko'rsatkichi bo'yicha yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan namunalar soni 11 tani tashkil qilganligi tajriba natijalarida aniqlandi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra bir tup o'simlik mahsuldorlik ko'rsatkichi bo'yicha andoza navdan past ko'rsatkichni tashkil qilgan namunalar soni 11 tani tashkil qilganligi tajriba natijalarida izohlandi. Andoza nav Toshkentskiy-122 navi bilan bir tup o'simlik mahsuldorlik ko'rsatkichi bo'yicha bir xil ko'rsatkichni tashkil qilgan namunalar soni 7 tani tashkil qilganligi tajriba natijalarida aniqlandi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra kolleksiya ko'chatzorida o'rganilgan 30 ta kunjut nav va namunalarda bir tup o'simlikdagi qo'zoqchalar soni, bir tup o'simlikdagi qo'zoqcha ichidagi don soni, 1000 dona don vazni va bir tup o'simlik mahsuldorlik ko'rsatkichi tahlil qilindi. Tajriba natijalariga ko'ra bir tup o'simlikdagi qo'zoqchalar soni bo'yicha andoza navdan yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan namunalar soni 11 tani, bir tup o'simlikdagi qo'zoqcha ichidagi don soni bo'yicha 12 ta namuna, 1000 dona don vazni bo'yicha 17 ta namuna va bir tup o'simlik mahsuldorlik ko'rsatkichi bo'yicha esa 11 ta namuna andoza navdan yuqori ko'rsatkichni tashkil qilganligi tajriba natijalarida aniqlandi va seleksiyaning keyingi bosqichga foydalanish uchun birlamchi manba sifatida tanlab olindi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Attar Roshan M. et al. Study of phenological, physiological, and yield responses of indehiscent and dehiscent sesame (*Sesamum indicum* L.) cultivars to sowing dates in Dezful, Iran // Plant Productions. – 2024.
2. Misganaw M., Mekbib F., Wakjira A. Genotype x environment interaction on sesame (*Sesamum indicum* L.) seed yield // African Journal of Agricultural Research. – 2015. – T. 10. – №. 21. – C. 2226-2239.
3. Jeyaraj S., Beevy S. S. Insights into the Drought Stress Tolerance Mechanisms of Sesame: The Queen of Oilseeds // Journal of Plant Growth Regulation. – 2024. – C. 1-22.
4. Rajesh P. Growth, yield and weed control of summer sesame (*Sesamum indicum* L.) under varying sowing dates and weed management practices.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.